

OILADA BOLALARNI YETUK, MA'NAVIYATLI ETIB TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Razzoqova Dilovar Boymaxmatovna

*Urgut tuman MMTB ga qarashli 39-umumiy
o'rta ta'lim maktab amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: Oila – nikoh munosabatlarini, urug' ichi munosabatlari va urug'lararo munosabatlarni tartibga solish zaruriyati bilan yuzaga keladi. Oila jamiyatning tayanchi, uning birinchi va birlamchi yadrosi, zarrasidir.

Kalit so'zlar: Oila, tolerantlik va intolerantlik, besh tashabbus, san'at, sport, kompyuter savodxonligi, kitob mutolaasi, xotin-qizlar bandligi.

KIRISH

Ma'rifatlilik tamoyili umuminsoniy qadriyatlardan biri hisoblanadi, shuning uchun uni jamiyat hayotida rivojlantirish butun insoniyatning tinch, barqaror va baxtli yashashiga xizmat qiladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, jamiyat hayotining barcha sohalarida ma'naviy omillar ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan. Oila va oilaviy tarbiya haqidagi tarixiy-falsafiy qarashlar rivoji Oila – nikoh munosabatlarini, urug' ichi munosabatlari va urug'lararo munosabatlarni tartibga solish zaruriyati bilan yuzaga keladi. Oila jamiyatning tayanchi, uning birinchi va birlamchi yadrosi, zarrasidir.

Ongli oila bo'lib yashash dunyodagi barcha maxluqot va jonzotlar orasida faqat inson zotiga xosdir. Oila tarixining Odam Ato va Momo Havodan boshlangani rivoyat qilinadi. Barcha muqaddas kitoblarda keltirilgan ushbu ko'hna naql zamonaviy ilm-fan tomonidan ham o'z tasdig'ini topmoqda. Binobarin, muhabbat tarixi ham shu ko'hna rivoyatga tutashadi. «Sevgi ham Odam Atodan qolgan inson qonida» deb yozganda shoir E. Vohidov haq edi. Genetika, biologiya fanlari qonunlariga ko'ra, har bir insonning o'zi bir olam, ular aslo biri birini takrorlamaydi. Ana shu biri ikkinchisiga o'xshamaydigan odamlarning, ya'ni er va xotinning ixtiyoriy ittifoqidan oila deb ataluvchi yangi bir olam, bu olamda o'z navbatida yana «yangi odam»lar – farzandlar vujudga keladi. Jamiyat shu tariqa barpo bo'ladi, rivoj topadi, ijtimoiy taraqqiyot vujudga keladi. Bu esa, oila, oilaviy munosabatlarni milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar negizida rivojlantirishni taqozo qiladi. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijtimoiy va ma'naviy ma'rifiy sohalarga oid beshta tashabbusi" dasturlari doirasida belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Zero, jamiyat oldida turgan bunday vazifalar echimini topish masalasini, mamlakatimiz sharoitida yoshlarni ilm-ma'rifatga undovchi motivatsiyalarning ijtimoiy-psixologik tabiatini o'rganishni va shunga mos tarzda ta'lim-tarbiya dasturlarini ishlab chiqilishini, metodologik asosni yaratish zaruriyatini tug'dirib, loyiha ishining dolzarbligini ko'rsatadi. Jahonda tolerantlik tamoyili umuminsoniy qadriyatlardan birini tashkil etadi. Uning jamiyat hayotida amal qilishi butun insoniyatning tinch va barqaror yashashiga xizmat qiladi.

Tarbiya ko'rgan shaxsning yurish-turishi, madaniy muomalasi, go'zal xulqatvori jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar xarakteriga ta'sir eta borib, **Forobiy** aytganidek, fozil odamlar jamoasining shakllanishiga zamin hozirlaydi.

Atoqli sharq shoiri Nizomiy Ganjaviy: «O'qib-o'rganilgan har bitta hunar hunarmandga bir kun foyda keltirar», deb yozganida ming bora haq edi. YAna hikmatlardan birida: «Har kimning zari bo'lmasa-da, ammo hunari bo'lsa, dunyoda hech bir xavf-xatari bo'lmaydi. Shuning uchun kishi hunar ziynati bilan bezanmog'i kerak», deyilibdi. Inson kamolotida oilaning o'rni beqiyos. Ayniqsa, yosh bolalarning katta hayotga qadam qo'yishida eng muhim omillardan biri bu – oiladagi muhit hisoblanadi. Ota-onaning farzandi va insonlarga bo'lgan munosabati, o'zini tutishi, qadriyatlar va insoniy fazilatlarga egaligi bola shaxsiyatining rivojlanishida juda muhim rol o'ynaydi. Dono xalqimiz bejiz “Qush uyasida ko'rganini qiladi”, deya ta'kidlamaydi. Bugun oiladagi zo'ravonlik, urush-janjal, ajrim kabi salbiy xatti-harakatlarga guvoh bo'lib o'sayotgan bolalarning ahvoli ertaga qanday kechadi?

Texnologiyaning rivojlanishi sababli bugun insonlar aqlli gadjetlar va internet tarmog'idagi ko'plab ma'lumotlarga egalik qilishmoqda. Xususan, oxirgi paytlarda tarmoqda chiqayotgan xabarlar inson ta'bini xira qilishi, joiz bo'lsa, ota-onalarga nisbatan nafrat ko'zi bilan qarashga xizmat qilmoqda. “Ammasi qaramog'iga berib ketilgan chaqaloq kaltak yegani sababli vafot etdi”, “Ona bolalari bilan ko'p qavatli uydan sakrab o'z joniga qasd qildi”, “Yangi tug'ilgan chaqaloq shifoxona eshigi oldiga tashlab ketildi” yoxud “Voyaga yetmagan qizni ota-onasi oila qurishga majburladi” qabilidagi xabarlarni o'qiyverib, diydami qotib ketdi, nazarimizda.

Bolajon xalq deya e'tirof etiladigan xalqimiz orasida bu kabi xabarlarning tarqalishi insonning ko'nglini xira qiladi. Bugun maktab yoshida bo'la turib, katta hayot mashaqqatlarini bo'yniga olgan, ko'chalarda salfetka sotishga majbur bo'layotgan norasidalarining taqdiri nega hech kimni o'ylantirmayapti? Oiladagi notinchlik sabab majburiy mehnatga jalb etilayotgan yoxud ota-onasi tomonidan yetarlicha e'tibor ko'rmay ko'cha hayotida yashayotgan bolalarning soni kun sayin ortib borayotganligi achinarli hol.

Ammo afsuslar bo'lsinki, ko'p hollarda biz ularning bayonotini bolalarning jabr ko'rganidan keyin eshitib qolamiz. Ayniqsa, ko'pchilik bunday tashkilotlarning mavjudligi haqida ham ma'lumotga ega emas. Ha, to'g'ri, o'zining pushti kamaridan

bo'lgan bolasiga rahm qilmagan, uning kelajagiga befarq bo'lgan ota-ona e'tibor bermaganda, bu tashkilotlar nima qilsin dersiz. Ammo qonunlarimizda yozilganidek, mamlakatimizda inson qadri va qiymati yuqori o'rinda turar ekan, bolalarning huquq va erkinliklari himoya qilinishi kerak. Bosh qomusimizning 77-moddasida "Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqish, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topish xususida g'amxo'rlik qilishga majburlar", deb keltirilgan. Shuningdek, 32 ta moddani o'z ichiga olgan "Bola huquqlari to'g'risida"gi qonunimizda ham bolaga balog'at yoshiga qadar g'amxo'rlik qilinishi, unga turli tazyiqlar keltirilmasligi va majburiy mehnatga jalb qilinmasligi belgilab qo'yilgan. Bolalar ombudsamani viloyat va shaharlarda bolalarning huquqlarini ta'minlash maqsadida qator ishlar amalga oshirayotganini ma'lum qilayotgan bir paytda, bolalar bilan bog'liq jinoyatlar soni ko'paymoqdaki, aslo kamayyotgani yo'q.

Bugun dunyo maqyosida zo'ravonlik bilan bog'liq holatlar avjiga chiqmoqda. Turli xil siyosiy, iqtisodiy sabablar tufayli millionlab bolalar nobud bo'layotganligi haqida xabardor bo'lyapmiz. Ammo tinchlik hukm surayotgan yurtimizda bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lishga nima sabab bo'lmoqda? Buni keltirib chiqarayotgan omillar qatorida esa erta turmush qurish holatlari, tomonlarning oila qurishga tayyor emasligi, o'z majburiyatlarini bilmasligi va majburiy nikoh sabab qilib ko'rsatilmoqda.

Bolalarga nisbatan zo'ravonliklarning ortib borishi, kelajakka bo'lgan tahlikani yanada orttiradi. Oilada yaxshi tarbiya ko'rmagan, doimiy ravishda kamsitilgan, shuningdek, ota-ona o'rtasidagi muammolarning qurboni bo'layotgan bolalarga himoya zarur. Bolalarni himoya qilish uchun birgina davlat tashkilotlari emas, balki ota-onalardan tortib, butun jamiyat vakillari mas'uliyatni his qilmog'i darkor. Sababi xalqimizda azaldan mavjud bo'lgan "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" iborasi barchamizga yod bo'lib ketgan. Bugun mana shu iboralar faqatgina tilda qolganligini, uning isboti o'laroq ishlar hali o'z natijasini to'liq bermayotganiga guvohmiz. Bolalarning yaxshi sharoitda ulg'ayishiga, hayot yo'lini mustaqil ravishda tanlashiga va jamiyat uchun kerakli shaxs bo'lib ulg'ayishiga hammamiz javobgarmiz. Zero, noto'g'ri yo'ldan borayotgan, qabih qilmishlarga qo'l urayotgan yoshlarning bu holga kelishida birgina oila a'zolari emas, jamiyat ham turibdi. Biz ana shu daxldorlik tuyg'usini his qilishimiz zarur.

Bolalarga yoshligidan biror kasb-hunar o'rgatish ota-onaning muhim vazifasidir. Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy bir dostonining qahramoni tilidan: «Hunarni asrabon netkumdir oxir, Olib tufroq-qamu ketkumdir oxir», «Yo'q hunari yolg'iz ersa kishi, qayda kishi sonida yolg'iz kishi», deganlar.

Xalqimiz mehnatsevarligi, g'ayrat-shijoati, hunarmandligi bilan nom chiqargan. Ota-onalar farzandlarini kichikligidanoq biror mashg'ulot bilan shug'ullantiradilar yoki hunar o'rgatish uchun biror hunarmand ustaga shogird qilib berishadi.

XULOSA

Tom ma'noda oilaning har bir a'zosi uchun xonadoni baxt makoniga aylanadi. Ushbu muhitda tarbiya topayotgan farzandlar albatta ma'rifatli, axloqan etuk, ruhan tetik, jismonan baquvvat, teran fikrlovchi, kasbli-hunarli, bir so'z bilan aytganda, tolerant madaniyat kishisi bo'lib voyaga etadi. Buning natijasida tarbiya topayotgan tolerant madaniyatli yoshlar oilasini qadrlaydigan, vatanini, xalqini sevuvchi va uning taqdiriga befarq bo'lmagan, Yangi O'zbekistonning ravnaq topishiga, mamlakatimizda Uchinchi Renessansni amalga oshirishiga munosib hissasini qo'shadigan ilg'or g'oyalar yaratuvchisiga aylanishiga shak-shubha qolmaydi.

Beshinchi tashabbus orqali esa, ya'ni xotin-qizlarning ish bilan ta'minlanishi natijasida oilaning moddiy imkoniyati oshadi va bu esa farzandlar ta'lim-tarbiyasi uchun moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Mirziyoev.SH.M. "Xalq so'zi" gazetasi 2020 yil 1 oktyabr, №207 (7709). – bet 1.
2. (Mirziyoev.Sh.M. People's Word newspaper, October 1, 2020, №207 (7709). - bet 1)
3. Najmidinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni. – T.: Adolat, 2016. – bet 5. (Najmidinova K.U. The role of national and universal moral culture in family upbringing. - T.: Adolat, 2016. - page 5.)
4. Abdurazakova M. va boshq. Tinchlik va bag'rikenglik atamaları izohli lug'ati // Mas'ul muharrir Q.A. Jo'raev. – T.: JIDU, 2005. – bet 13. (Abdurazakova M. et al. Glossary of Terms of
5. Peace and Tolerance // Responsible Editor Q.A. Jo'raev. - T.: JIDU, 2005. - page 13.)
6. Karimova E. O'zbek tolerantligi. – T.: Aloqachi, 2005. – bet 7. (Karimova E. Uzbek tolerance. - T.: Aloqachi, 2005. - page 7.)
7. Internet materiallari